


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi
huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi
 **O.Ashurov**
2026-yil ____

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi majlisi

BAYONI

2 – son

2026-yil 27-aprel

Toshkent shahri.

Raislik qildi: Jamoatchilik kengashi raisi O.Ashurov
Ishtirok etdi: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, vazirlik markaziy apparati mas’ul xodimlari hamda onlayn ishtirokchilar (*ro‘yxat asosida*).

KUN TARTIBI:

1. Jamoatchilik kengashining yillik ish rejasini ko‘rib chiqish va tasdiqlash.
2. “Madad” NNT tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy loyihalarni muhokama qilish.
3. Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash holatini muhokama qilish.
4. Jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar.

(Ashurov, Jo‘rayev, Turdiboyeva, Alimova, To‘rabekov, Mixliyev, Mahmudaliyev, Yakovleva, Lutfiddinov, Karimjonov, Kamilov, Sviridova, Haydarov, Abduraxmanova, Muxtoraliyev, Soatova, Murodillayeva, Aliyeva.)

Yig'ilishni O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Jamoatchilik kengashi raisi O. Ashurov kirish so'zi bilan ochib berdi.

Yig'ilish Jamoatchilik kengashi raisi tomonidan ochib berildi va kvorum mavjudligi qayd etildi.

Kun tartibidagi masalalar e'lon qilinib, birinchi navbatda ish rejasi muhokamaga qo'yilishi belgilandi.

1-masala yuzasidan:

Jamoatchilik kengashining 18 banddan iborat yillik ish rejasi taqdim etildi.

Unda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanganligi ta'kidlandi:

- vazirlik faoliyati bo'yicha jamoatchilik bilan tizimli muloqot;
- fuqarolar murojaatlarini jamoatchilik nazorati asosida ko'rib chiqish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish;
- davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- NNT va OAV bilan hamkorlikni rivojlantirish. Mazkur ish reja a'zolar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

2-masala yuzasidan:

Vazirlik departamenti vakili tomonidan "Madad" NNT tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy loyihalar haqida ma'lumot berildi .

Xususan:

- Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani "Navkat" mahallasida ko'p tarmoqli ishlab chiqarish kooperativi tashkil etish;
- Surxondaryo viloyati Denov tumani "Surxondiyor" mahallasida "Dilorom" ayollar kooperativini tashkil etish.

Loyihalarning asosiy maqsadi:

- aholini kooperatsiya asosida birlashtirish;
- yangi ish o'rinlari yaratish;
- daromadlarni oshirish;
- zamonaviy kasblarga o'qitish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish zanjirini shakllantirish.

Muhokama davomida kengash a'zolari tomonidan quyidagi takliflar bildirildi:

- kooperativ mahsulotlari uchun bozor va savdo nuqtalarini yaratish;
- yirik savdo tarmoqlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- kooperativ a'zolari o'rtasida huquqiy va moliyaviy munosabatlarni aniq belgilash;
- ishlab chiqarishda ixtisoslashuv va standartlashuvni joriy etish;
- mahsulotlarni brendlash va sifat talablarini belgilash;
- yollanma ishchilar va kooperativ a'zolari o'rtasida optimal modelni qo'llash;
- ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Shuningdek, loyiha doirasida xorijga ishlash uchun tayyorlash masalasi yuzasidan fikrlar bildirilib, uni **“xorijda ishlash uchun tayyorlash imkoniyatlarini yaratish”** shaklida qayta ifodalash maqsadga muvofiq deb topildi.

Loyiha kengash a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlandi (*bir nafar a'zo betaraf*).

3-masala yuzasidan:

Vazir o'rinbosari R.Turdiyeva tomonidan fuqarolar murojaatlarini joyiga chiqib o'rganish, muammolarni bartaraf etish hamda jamoatchilik fikrlarini inobatga olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berildi.

A'zolar tomonidan ushbu yo'nalishda:

- ochiqlikni kuchaytirish;
- murojaatlar monitoringini tizimlashtirish;
- jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

4-masala yuzasidan:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Xususan:

- kengash tavsiyalarining ijrosini muntazam monitoring qilish;
- loyihalar bo'yicha davriy hisobotlarni eshitib borish;
- hududlarda pilot loyihalarni kengaytirish;
- xalqaro tajribani joriy etish zarurligi qayd etildi.

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasi tasdiqlansin.
2. **“Madad”** NNT tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy loyihalar ma'qullansin va ularni amalga oshirishga start berilsin.
3. Loyiha doirasida:
 - mahsulotlar realizatsiyasi uchun bozor mexanizmlarini yaratish;

- Savdo-sanoat palatasi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan integratsiyani kuchaytirish;

- kooperativ faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan mustahkamlash choralari ko'rish tavsiya etilsin.

4. Ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish hamda loyihalar bo'yicha davriy hisobotlarni Jamoatchilik kengashiga taqdim etish belgilansin.

5. Fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish va ularni joyiga chiqib hal etish amaliyoti takomillashtirilsin.

6. Jamoatchilik kengashi tomonidan bildirilgan takliflar asosida keyingi yig'ilishlarda aniq yo'nalishlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

Kengash kotibi



G. Alimova